

## LINGVISTIKADA INTERNET MULOQOT TUSHUNCHASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-147-152>

**Muxamedjanova Sh.B.**

TDSHU, Xitoy filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi  
shahnozochka82@ mail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolaning maqsadi internet muloqot terminini lingvistikadagi o'rnini ko'rib chiqish va belgilashdir. Ijtimoiy tarmoqning kelib chiqishi, inson hayotidagi o'rni, afzalligi, ijobiy va salbiy tamonlarini belgilashdir. Internet paydo bo'lganidan boshlab, sotsiologlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Internet ham global, ham milliy a'loqa vositasi hisoblanib, yangi g'oyalar, qarashlar, talqinlarning manbai va tarqatuvchisi hisoblanadi, va u brogan sari kengayotgan yangi ijtimoiy muhitdir. Internet yangi ijtimoiy muhitdir bo'lib, u bizlarga odamlarning axborot texnologiya jamiyatiga insonlarning o'zaro ta'siri haqidagi tushunchamizni kengaytiradi. U bir tomondan globallizasiya jarayonini onsolashtirib berarigan a'loqa vositasi bo'lsa, boshqa tomondan kundalik hayotni kompyuterlashtirishni individuallashtirishga yordam beradi.*

***Tayanch so'z va iboralar:** internet, muloqot, ijtimoiy tarmoq, elektron pochta*

***Аннотация.** Цель данной статьи – рассмотреть место термина Интернет-коммуникация в лингвистике. Именно определить происхождение социальной сети, ее место в жизни человека, преимущества, выгоды и последствия. С момента появления Интернета его изучают социологи. Интернет является источником и распространителем новых идей, взглядов, интерпретаций, а также новой социальной средой, которая считается одновременно глобальной и национальной. Интернет — это новая социальная среда, которая захватывает наше понимание человеческого взаимодействия в обществе информационных технологий. С одной стороны, это средство коммуникации, облегчающее процесс глобализации, с другой – способствующее индивидуализации компьютеризации повседневной жизни.*

***Ключевые слова:** интернет, общение, социальная сеть, электронная почта.*

***Annotation.** The purpose of this article is to consider the place of the term Internet communication in linguistics. It is to determine the origin of the social network, its place in human life, advantages, benefits and consequences. Since the advent of the Internet, it has been studied by sociologists. The Internet is a source and distributor of new ideas, views, interpretations, and it is a new social medium that is considered both global and national. The Internet is a new social environment that is taking over our understanding of human interaction in the information technology society. On the one hand, it is a means of communication that facilitates*

*the process of globalization, on the other hand, it helps to individualize the computerization of everyday life.*

**Key words:** *internet, communication, social network, e-mail.*

Ijtimoiy tarmoqning inson hayotida afzalligi haqida gapirar ekanmiz, uning muloqot vositasi, ya'ni do'st orttirish, ma'lumot to'plash, yangiliklardan xabardor bo'lish uchun yaxshi vosita sifatida e'tirof etish bilan birga, uning jonli muloqotga teng bo'la olmasligini ham ta'kidlash joizdir. Internet aloqasi 20-asr boshlarida paydo bo'lganidan beri uzoq yo'lni bosib o'tdi. Darhaqiqat, u juda uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lib, biz har doim ham shunday bo'lmaganini sezmasligingiz mumkin. Biz hozir internet deb bilgan narsaga birinchi qadamlar 1800-yillarning oxirida telegraf operatorlari tomonidan qo'yilgan bo'lib, ular uzoq masofalarga xabar yuborish uchun Morze alifbosidan foydalanganlar. Buning ortidan telefon qo'ng'iroqlari boshlandi, bu odamlarning geografik chegaralar bo'ylab bir-biri bilan muloqot qilishiga imkon berdi. Oxir-oqibat, bu texnologiyalar elektron pochtaga aylandi, bu foydalanuvchilarga kompyuterlar o'rtasida oldinga va orqaga xabar yuborish imkonini berdi.

Internet tarixi doimiy o'zgarishlarga egadir. Internet-kommunikatsiya tadqiqotlari 1990-yillarning o'rtalarida boshlanib, 20-asr kelib falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik va boshqa tegishli fanlar sohasida faol rivojlanishda. Aholi o'rtasida internet-muloqot ommabopligining jadal o'sishi sababli tadqiqotlar faollashmoqda. Internet paydo bo'lganidan boshlab, sotsiologlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Internet ham global, ham milliy a'loqa vositasi hisoblanib, yangi g'oyalar, qarashlar, talqinlarning manbai va tarqatuvchisi hisoblanadi, va u brogan sari kengayotgan yangi ijtimoiy muhitdir. Internet yangi ijtimoiy muhitdir bo'lib, u bizlarga odamlarning axborot texnologiya jamiyatiga insonlarning o'zaro ta'siri haqidagi tushunchamizni kengaytiradi. U bir tomondan globallizasiya jarayonini onsolashtirib berarigan a'loqa vositasi bo'lsa, boshqa tomondan kundalik hayotni kompyuterlashtirishni individuallashtirishga yordam beradi.

Yillar davomida Internet aloqasi juda o'zgardi. Odamlar birinchi marta elektron pochtdan foydalanishni boshlaganlarida, ular uzun jumlar va paragraflarni yozishlari kerak edi, chunki ularning xabarlarida kulgichlarni qo'shishning hech qanday usuli yo'q edi. Endi biz har doim kulgichlardan foydalanamiz! Biz emojilarni matnli xabarlarda his-tuyg'ularni ifodalash yoki hatto “qo'ldan kelgancha harakat qilish” kabi murakkab iboralarni qilish uchun ishlatishimiz mumkin.

Dastavval internetning maqsadi foydalanuvchilarni turli xil ma'lumotlar bilan ta'minlash bo'lgan, ammo bugungi kunga kelib odamlar orasidagi muloqot virtual makonning etakchi funksiyasiga, shu bilan birga guruxlararo muloqot ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi muloqotning o'ziga xos vositasiga aylanib ulgurdi.

Internet muloqot deganda biz ikki va undan ortiq shahsning internet orqali muloq'oti, yozma xabar va tezkor fikr-mulohazalar bilan elektron xabarlar

almashinuvi, ularning saqlanishini tushunamiz. Shaklga ko'ra, kompyuter aloqasi og'zaki (agar sizda ovozli modem bo'lsa) va yozma (matn va grafik) muloqotga bo'linadi. Muloqot usuliga ko'ra, Internet bilvosita aloqadir, chunki u texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Axborotni uzatish va idrok etishga ko'ra, kompyuter aloqasi aktual (haqiqiy odamlar bilan aloqa) va virtual (noma'lum, xayoliy suhbatdoshlar bilan aloqa) ga bo'linadi.<sup>1</sup>

“Internet muloqot” tushunchasi o'z ichiga internet-kommunikatsiya, blogosferalar kabi tushunchalarni qamrab oladi. Jamiyat hayoti uchun majburiy sharoit hisoblangan “Internet muloqot” deganda, “ikki va undan ko'p tilga ega shaxslarning axborot olish va almashish jarayonidagi o'zaro ta'siri, ya'ni birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo'lgan suhbatdoshga u yoki bu jihatdan ta'sir etish” tushuniladi.

M.Yu. Sidorovaga ko'ra, internet-kundalik yoki bloglar alohida ajratilgan global tarmoqdagi o'zaro ta'sir bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan bloglar majmuasi deb tushunilgan “blogosfera” tushunchasini ham qamrab oladi. Blogosfera – bu alohida kommunikatsion muhit bo'lib, har bir odam virtual shaxsiyat tuzish va o'z shaxsiyatini, shu jumladan, gender jinsini qurish imkoniyatiga ega bo'lgan internet muxitidir. Undan tashqari, “blogosfera” bir-birini istisno qiladigan ikkita – tilni ifodalash, mazmun va pragmatik niyatlar elementlari darajasida soddalashtirish va murakkablashtirish, shuningdek, adabiy til va so'zlashuv nutqi me'yorlarining faol raqobati xususiyatlariga ega internet tili xususiyatlari alohida o'ringa egadir. Blogosferada har bir shaxs, hoh u oshkora, hoh pinxona shaklda muloqotga chiqishidan qat'iy nazar, o'zining mustaqil fikrini bayon etishi, jamiyatning turli qatlamiga mansub bo'lgan muxitda muloqot qilish imkonidan foydalana oladi. Shunga ko'ra, blogosfera ma'lum ma'noda gender tafovutga (erkak va ayollar), yoshga ko'ra (qariyalar, yoshlar, o'smirlar, bolalar) tavsiflanadi.

Blogosferada mavjud bo'lgan Internetdan so'ng vaqt o'tishi bilan cho'zilgan muloqot hayotimizga mustahkam kirib bordi va o'zi bilan ma'lumot almashishning yangi usullarini va natijada til mavjudligining yangi shakllarini olib keldi<sup>2</sup>.

Vaqt o'tishi bilan, jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang ravishda internet makonidagi muloqot xayotimizning ajralmas qismiga aylandi va bu bilan muloqotning yangi usullari, shakllarini olib kirdi.

Muloqot doimo rivojlanib bormoqda, ba'zi odamlar do'stlarining onlayn avatarini uning siymosi sifatida ko'rishga odatlangan. Do'stlar bilan muloqot qilish va xotiralar yaratishdan ko'ra, deyarli notanish odamlar bilan baham ko'rish istagi ko'proq. Axir, yuzma-yuz suhbat va muloqotni hech narsa almashtira olmaydi. Jismoniy shaxslar va brendlar o'rtasidagi onlayn ma'qullashlar va ijtimoiy media

<sup>1</sup> Галичкина, Е.Н. Характеристика компьютерного дискурса // Вестник ОГУ [Электронный ресурс]. — Режим доступа: [http://www.vestnik.osu.ru/2004\\_10/9.pdf](http://www.vestnik.osu.ru/2004_10/9.pdf). — Дата доступа: 20.12.2016.

<sup>2</sup> Jylmaz, M. (2018). Kompleksnoe opisanie rechevogo obshhenija v russkojazychnom internet-prostranstve. Dissertasiya na soiskanie uchenoj stepeni kandidata filologicheskix nauk. (p.287). Moscow.

dialoglarining portlashiga qaramay, tadqiqotchilar og'zaki almashish va chuqur suhbatlar hali ham eng katta ta'sirga ega ekanligini aniqladilar.

Internet aloqaning o'ziga xos xususiyatlari o'z ichiga internet tarmog'ini qamrab olgan ommaviy kommunikatsiyaning xususiyatlari bilan aynan mos keladi. N.N. Bogomolova ommaviy kommunikatsiyaning quyidagi: muloqotda texnik vositalaridan foydalanish, katta ijtimoiy guruhlarining jalb qilinishi, qayta aloqa javobining majburiy emasligi, komunikantlarning real hayotda notanish, anonim qolgan holda bir-biridan ayroliq kabi asosiy xususiyatlarini ajratadi<sup>3</sup>.

Internet muloqotda anonimlikning muhimligini ta'riflash mushkul, chunki anonimlik muloqotga kirishganlarga o'zini erkin his qilishi, o'zining his tuyg'u va fikrlaridan uyalmaslikni ta'minlaydi.<sup>4</sup>

Ba'zi olimlar fikricha, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn muloqot o'smirlarning ijtimoiy ko'nikmalari va muloqotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ilgari internet va ijtimoiy tarmoqlar mavjud bo'lmagan davrda yuzma-yuz suhbat o'zaro muloqot qilishning yagona yo'li edi. Texnologiyalar asrida ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatdagi ishtiroki endi onlayn va oflayn suhbatlarda ustunlik qila boshladi. Muloqot va o'zaro xabar almashish odatiy holga aylangan jamiyatda do'stlaringiz va oilangiz bilan yuzma-yuz emas, balki elektron qurilmalar orqali suhbatlashish odatiy holga aylanib qolmoqda. Ko'pincha tadbirlarda yoki ziyofatlarda mehmonlar o'zlarining smartfonlariga ulanadilar, sms yoki xabarlar yozib jo'natish bilan band bo'lib, hech kim diqqat bilan atrofdagilarni tinglamaydi va suhbatda ishtirok etmaydi yoki muloqot qilmaydi. Ijtimoiy asrga avlodlar tobora kirib borar ekan, ijtimoiy media yoshlar o'rtasida afzal ko'rilgan muloqot shakli bo'lib qolaveradi. Biroq, bu o'zgarish ularning tengdoshlari bilan to'g'ri muloqot qilish qobiliyatiga ta'sir qila boshlaydi.

Hozirgi kunda internet muloqot xususida bir qator ijobiy va salbiy fikrlar tobora ko'payib bormoqda. Ushbu mavzuda axborot agentliklari ham faol chiqishlar bilan fikrlar va izohlar qoldirmoqdalar. Fikrimizning dalili sifatida Oyina.uz ijtimoiy tarmog'i jurnasisti Shahnoza Soatovanning quyidagi fikrlarini ta'kidlash joiz: “Ichingizdagi tasmangizdadir – ijtimoiy tarmoqda ma'naviyat bormi? B'olsa, qanday?” maqolasida ijtimoiy tarmoq tushunchasiga shunday ta'rif beradi; “Ijtimoiy tarmoqning ma'naviyat bilan munosabati o'zgacha – uni ba'zan mensimaydi, ignor qiladi, ba'zida unga juda qiziqib, o'tkir savollar qo'yadi: “Ma'naviyat nima?”, “Bor narsami, o'zi?”, “Mezon-o'lchovlari qanday?” Asosiysi, tarmoqda ma'naviyat turli nom va shakllarda mavjud; foydalanuvchilar unga murojaat etadi, o'rganadi, tadqiq va targ'ib qiladi, u bilan (yoki usiz) yashaydi. Ya'ni ma'nosi bor har narsaning ma'naviyati bor, jumladan, ijtimoiy tarmoqning ham.”<sup>5</sup> Ijtimoiy tarmoqda foydalanuvchilarning xulq-atvori to'g'ridan to'g'ri emas, qandaydir bir prizmadan o'tib namoyon bo'ladi. Ya'ni bu yerda muloqotda odamlar aslidagidan ko'ra dadilroq,

<sup>3</sup> Богомолова, Н. Н. Массовая коммуникация и общение / Н. Н. Бого-молова. – М.: Знание, 1988. – 80 с.

<sup>4</sup> Иванов, В. Е. Интернет в формировании диалогического пространства в социокультурной среде // Мир психологии. – 2000. – № 2. – С. 52–56.

<sup>5</sup> <https://oyina.uz/kiril/article/916>

jur’atliroq, betgachoparroq, mulozamatsiz va hatto shafqatsizroq ko’rinishi mumkin. “Yuz amri shirin” maqoli aynan mos keladigan holat – ikki shaxs ko’z-ko’zga tushganda aytolmaydigan gaplarini internetda bemalol aytadi. Muomala bobida ham shunday. Bu hatto odatiy-oddiy hol deb qaralmoqda. Demak, real hayotdagi xulq bilan parallel ravishda ijtimoiy tarmoqlarda o’zgacha, o’ziga xos odob shakllangan. Bu axloq har bir tarmoqda o’zgacha, farqli namoyon bo’ladi. Masalan, yurtimizda eng keng tarqalgan, bugungi kunda 18 mln foydalanuvchiga ega Telegram messengerida juda har xil, turli daraja va dunyoqarashli odamlar to’plangan. Anonim qolish, shaxsini, tarmoqdagi tarixini yashirish imkoniyati keng bo’lgani bois muhokamalarda odamlar ancha tili bo’shalgan, tikkakesar va bahslarda shaxsiyatga ko’p tegiladi. So’kish, haqorat so’zlari ham hech bir pardasiz, evfemizmlarsiz ishlatilishi uchraydi. Ayrim blogerlar, kanal adminlari muhokama guruhlarida munozara qilish qoidalarini eslatib turishadi, biroq foydalanuvchilar ko’pda bunga rioya etmaydilar.

Sh. H. Shahobiddinova va Sh. X. Yuldashevalarning “Internet muloqot va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar” nomli maqolasida internet muloqotning ijobiy va salbiy tomonlarini ko’rib chiqilgan va yuqoridagi internet muloqotning ijobiy tomonlariga oid fikrlar o’z tasdig’ini topgan<sup>6</sup>. Shunisi qiziqki, kamchiliklar yutuqlardan deyarli farqlanmaydi, xususan:

1. Makonda chegaralanmaganlik: internet orqali er sharining xohlagan nuqtasidagi inson muloqotga kirishib muloqot oqimini sizga maqbul bo’lmagan o’zanga burishi mumkin va u o’zining jazosiz qolishini bilgani uchun unda chegaradan chiqib ketish holatlari bo’lishi ham kuzatiladi.

2. Zamonda chegaralanmaganlik: internetga qaramlikka olib keluvchi eng asosiy omillardan biri. Istalgan paytda muloqotga kirishish insoniyatning ko’p mingyillik muloqot tajribasiga yirik o’zgarishlar kiritdi. Hamsuhbatning vaqtini hisobga olish shart emasligi, bir paytning o’zida bir necha yo’nalishga bog’lanish imkoni muloqotning deyarli uzluksiz davom etishiga yo’l qo’yadi. Bu esa internet foydalanuvchilarning ijtimoiy-maishiy xususiyatlari, sog’lig’i va ruhiy holatiga salbiy taʼsir ko’rsatishi shubhasiz.

3. Anonimlik. O’z shaxsiyatini yashirish va istalgandek tavsiflash virtual muloqotni aktual muloqotga nisbatan kutilmagan hamda himoyalangan qilib qo’yadi. Suhbatdoshning aslida kim ekanligini bilmay turib muloqotga kirishish aktual muloqot chog’ida qo’lga kiritgan usullarni deyarli samarasiz qilib qo’yadi.

4. Ixtiyoriylik. Muloqotga kirishish bir tomonning ixtiyoriga ko’ra boshlanishi va tugallanishi mumkinligi ham alohida yutuq sifatida qaraladi. Muloqotni ixtiyoriy boshlash uchun replikalarni yo’llash kifoya. Narigi taraf uchun ham uni ko’rish-ko’rmaslik va javob yo’llash-yo’llamaslik ixtiyoriydir.

<sup>6</sup> Shahobiddinova, Sh. H., & Yuldasheva, Sh. X. (2018). Internet muloqot va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar. Ilmiy xabarnoma, № 2, pp. 85-88.

5. Globallik. Aktual muloqotda odatiy bo'lgan milliy, jinsiy, tabaqaviy chegaralanishlar virtual muloqotda deyarli mavjud emasligi milliymentalital xususiyatlarga berilgan zarbadir. Milliy o'ziga xoslikning tarkibiy qismi bo'lgan muloqot odati va odobi asta-sekin o'z o'rnini ommaviy madaniyat elementlariga bo'shatib berayotgani sir emas.

6. Xavfsizlikka tahdid ham virtual muloqot usullarida yangicha shakllar kasb etib bormoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, anonimlik muloqotni kutilmagan hamda himoyalangan qilib qo'yadi. Yuzma-yuz muloqotda mavjud bo'lgan suhbatdoshni baholashda qo'l keluvchi paralingvistik vositalar (ovoz tembri, ko'z qarashi, teri rangi, qo'l harakatlari)ning cheklanganligi odatdagi muloqot shakllarida samarali bo'lgan suhbat jarayonini tashxislash va himoyalani mexanizmini deyarli foydasiz qilib qo'yadi.

7. Muloqot uchun qulay konstitutsiyani tanlash imkoni suhbat jarayoniga befarq qarash, zaruriy momentlarni nazardan qochirish kabilar natijasida suhbat samaradorligini pasaytirishi mumkin.<sup>7</sup>

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz Internetdagi aloqa nisbatan yangi aloqa turi bo'lib, olimlar tomonidan to'liq o'rganilmagan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, anglashiladiki, internet-muloqot quyidagi o'ziga xos:: globallik, interaktivlik, anonimlik, atipik, real hayotdagi xatti-harakatlardan farqli, muloqot ishtirokchilarining xatti-harakatlari, shuningdek, tarmoqda lingvistik shaxsni yaratish xususiyatiga ega. Virtual muloqotning har bir ishtirokchisi nafaqat virtual makonning yaratuvchisi, balki muloqot amalga oshirilayotgan tilning ham yaratuvchisidir. Zamonaviy Internet-muloqotning xarakterli xususiyatlari orasida anonimlik, muloqot jarayonlarining g'ayrioddiy kursi, muloqot ishtirokchilari o'rtasida munosabat o'rnatishning ixtiyoriyligi, muloqot amalga oshirishda hissiy komponentning yo'qligi, atipik xatti-harakatlarga intilish, to'g'ridan-to'g'ri fikr-mulohazalarning yo'qligi, shuningdek, gipermatn va agrammatizm. Lisoniy darajada Internet muloqotning xususiyatlarini turli qisqartmalarini o'z ichiga qamrab olgan o'ziga xos lisoniy makondir.

---

<sup>7</sup> Shahobiddinova, Sh. H., & Yuldasheva, Sh. X. (2018). Internet muloqot va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar. Ilmiy xabarnoma, № 2, pp. 85-88.